

## Leksema Va So‘Z Munosabati

*Qudratova Manija Shohmansur qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada leksema va so‘z haqida ma’lumot berib o‘tilgan. So‘z va leksema terminlari o‘rtasidagi munosabatlar, bog‘liqliklar, farqlar haqida umumiy tushuncha berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Leksikologiya, leksema, so‘z, nomema, sema, semema, lisoniy birlik, leksik ma’no, grammatik ma’no.

So‘z qudrati cheksiz. So‘z bu – munosabat demak. Tildan chiqqan har bir kalom bizning o‘zgalarga va o‘zgalarning bizga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Ya’ni kim qanday tilda so‘zlashmasin, qanday tilda bilim olmasin, uning nutq odobi va so‘zlashuv munosabatidan qanday inson ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo‘q ondin”, deya so‘zni moddiyatdan ustun qo‘yanlari bejiz emas. So‘zlash individni odamga, ma’noli va chiroyli so‘zlash esa odamni insonga aylantiruvchi vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek tili haqiqatdan ham gavhardek qimmatbaho topilmalarga boy. Biroq ularni o‘z o‘rnida munosib qo‘llay olish inson ma’naviyatiga bog‘liq. Sof ona tilida ravon va go‘zal so‘zlay olish qobiliyatiga ega bo‘lish uchun kishi ich-ichidan o‘ta ma’naviyatli inson bo‘lishi, o‘z ona tilini qadrlashi, chin dildan o‘rganish hissi bor ekanligi lozim. Aks holda sun’iylik, soxtalik sezilib qoladi, o‘rganilishi kerak bo‘lgan bilimlar ham qiyin tuyiladi.

Leksikologiya so‘zi grekcha lexicos – “lug‘aviy belgi” va logos - “bilim” so‘zlaridan olingan bo‘lib, tilshunoslikning so‘z va so‘zga teng lug‘aviy birliklar, aniqrog‘i, til boyligi haqida bahs yurituvchi qismidir. Har bir tilning lug‘at tarkibi, boyligi, shuningdek, tildagi so‘zlar majmui leksika deb yuritiladi. Leksikologiya leksikani o‘rganadi, leksika esa so‘zlardan yoki so‘zlar majmuidan iborat bo‘ladi.

Leksema (yunoncha: lexis — so‘z, ifoda) — til qurilishining leksik ma’no anglatuvchi lug‘aviy birligi. Leksema bildiradigan ma’no so‘zning material qismi: ma’lum tovush kompleksini ma’lum obyektiv voqelikka bog‘lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarija. Har qanday leksema o‘zining ma’nosи va grammatik xususiyatlari birligidan iborat. Bunday birlik so‘z va iboralarda mayjud. Ularga nisbatan glossema, lug‘aviy morfema atamalari ham ishlatiladi.<sup>2</sup> Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi ham leksema deyiladi. Masalan, kitob leksemasining leksik ma’nosи. — „varaqlangan“, „muqovaga olingan“, yashamoq leksemasining leksik ma’nosи — „ma’lum bir joyda umrguzaronlik qiladigan“, „hayot kechiradigan“ va boshqa shu kabi so‘zlarning barchasida leksik ma’nolar mujassam. Shunga ko‘ra, ular lug‘aviy (semantik) ma’no jihatdangina emas, balki fonetik va grammatik jihatdan ham o‘rganiladi. Shuningdek, kirob so‘zi bir narsaning umumlashgan oti bo‘lib, yolg‘iz tushunchani ifodalaydi, o‘rtog‘imning kitobi birikmasida esa faqat “kitob” ma’nosining o‘zi emas, balki “o‘rtog‘imga tegishli kitob” tushunchasini ifodalaydi.<sup>3</sup> Xususan, kitob leksemasi “ilm-fan, texnika va shu kabi sohalarga oid bilimlarni o‘zida jamlagan muqovalangan varaqlardan iborat majmua: kitob sotib olmoq<sup>4</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘atida kitob leksemasiga quyidagicha ta’rif berilgan: yozilgan, muqovalangan asar. Ma’lum matnli varoqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48

<sup>1</sup> Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishining 3-bosqich 306-guruh talabasi

<sup>2</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>3</sup> N.Mahkamov, I.Ermatov. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. “Fan” nashriyoti – Toshkent – 2013 ,64-bet

<sup>4</sup> A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov, K.Kokren, M. Saidxonov, A.Sobirov, D.Quronov. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. “Sharq” nashriyoti. – Toshkent – 2001, 109 -bet



sahifadan kam bo‘lmagan bosma asar. Ushbu misollar kitob leksemasiga doir: Ahmad Husayn kitoblarni saralab, chamadanga joyladi..Oybek, Nur qidirib. Hozir otaga qarashib turibman – choyxo‘rlarga gazeta, kitob o‘qib beraman. A.Qahhor, Asror bobo tilidan olingan. Tez kunda dovrug‘im olamga yoyilib ketsa-ya...mening haqimda ham kitoblar yozishsa-ya. X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati.

Tilshunoslikda sistem leksikologiyaing rivojlanishi so‘z haqidagi bilim va tasavvurlarni kengayishiga xizmat qildi. Shu tariqa leksema termini paydo bo‘ldi. Tilshunoslik nazariyasida leksemaga ham turlicha ta’riflar berilgan.

Xususan, H.Ne’matov va R.Rasulovlar “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” o‘quv qo‘llanmasida leksemaga quyidagicha ta’rif berishgan: “Leksema – jamiyat a’zolari uchun tayyor, umumiyligi, majburiy bo‘lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug‘atda grammatick morfemalarni o‘ziga biriktira oladigan morfema turi leksemadir”.

Professor Sh.Rahmatullayev ta’kidlaganidek, “leksema-asosi, birlamchi til birligi bo‘lib, til qurilishining lug‘at boyligiga mansub, shunga ko‘ra lug‘at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi”.<sup>5</sup>

B.Mengliev ham o‘zining hozirgi o‘zbek tili o‘quv qo‘llanmasida leksemaga ta’rif bergan: “Leksema o‘zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma’no birligidan iborat, mustaqil anglanish va qo‘llanish tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlik”dir.<sup>6</sup>

Akademik A.Hojiev o‘zining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da leksemaga quyidagicha ta’rif beradi: “Tilning lug‘at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug‘aviy ma’no anglatuvchi unsuri”.<sup>7</sup>

R.Rasulov 2010-yilda nashr qilingan “Umumiy tilshunoslik” darsligida leksemani quyidagicha izohlaydi:

1. Leksema til birligi sifatida tayyorligi, yaxlitligi va jamiyat a’zolari uchun umumiyligi, ular xotirasida mavjudligi bilan o‘ziga xosdir.
2. Leksema ifoda va mazmun tomonlarning bog‘liqligidan, bir butunlikdan tashkil topib, muayyan predmetlarni atash, nomlash vazifasini bajaradi.
3. Leksema fikr almashish jarayonida so‘z birikmasi va gap kabi nutq birliklari uchun material vazifasini o‘taydi.
4. Leksema nutq faoliyatida so‘z (so‘z formasi) sifatida voqelashib, nutq birligi bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi. U til sistemasining leksik birligi, lug‘at boyligi hisoblanadi.
5. Leksemaning til birligi sifatidagi umumiyligi til umumiyligidan kelib chiqadi. Chunki til va nutq dialektikasida til umumiy, nutq esa xususiy hisoblanadi”.<sup>8</sup>

Ko‘rinadiki, leksemaning eng asosiy xususiyati uning lug‘aviy birlik ekanligida, ya’ni lug‘aviy ma’no anglatish qobiliyatiga ega ekanligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, nutqda foydalanilgan har bir so‘z va soz‘lar birikmasi o‘zining ma’lum bir sememasini bildiradi.

So‘z — tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur ma’noviy birligi; o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, borliqdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatick ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishi. So‘z inson uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi, lekin, undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. O‘zida leksik va grammatick ma’noni birlashtirgan holda so‘z muayyan so‘z turkumiga mansub bo‘ladi, o‘z tarkibida muayyan til tizimida

<sup>5</sup> SH. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T., 2006, 22-bet

<sup>6</sup> B. Mengliev Hozirgi o‘zbek tili. – Darslik, Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018,.116-bet

<sup>7</sup> A. Hojiyev O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1981

<sup>8</sup> R. Rasulov, Umumiy tilshunoslik. – Darslik, Toshkent – 2010,.219-bet



oldindan tayin bo‘lgan barcha gramma tik ma’nolarni ifodalaydi.<sup>9</sup> Tilshunoslikda „so‘z“ atamasi leksema gina nisbatan ham qo‘llanadi va leksik so‘z deb yuritiladi. Masalan, „so‘z yasalishi“, „yasama so‘z“ birikmalarida „so‘z“ xuddi shu ma’noda qo‘llanadi. Leksemaning nutqda muayyan shaklda voqe langan holati tilshunoslikda so‘z shakl, leksema shakl yoki morfologik so‘z deb ham yuritiladi. So‘zlarning tovush va ma’no tomonlari mavjud. Lekin har qanday tovush va ma’nolar yig‘indisi so‘zni tashkil etmaydi. Tovush va tovushlar birikmasi so‘z holida shakllanishi uchun yoki so‘z bo‘lishi uchun muayyan bir ma’noga ega bo‘lishi, ya’ni muayyan bir til egalari uchun tushunarli bo‘lishi yoki bir-biriga tushuntira olishi kerak. So‘z ma’nosida umumiylilik va xususiylik, barqaror va o‘zgaruvchanlikning o‘zaro munosabatlari aks etadi. Bir ma’noning barqarorligi o‘zaro tushunishni qulayshtirsa, uning o‘zgaruvchanligi yangi tushuncha va narsalarni nomlashda imkon yaratib beradi, badiiy so‘z san’ati rivojlanadi va takomillashib boradi. So‘zlarning birdan ortiq ma’noni ifodalanishi ham aynan ma’noning o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liqidir. So‘zlovchi munosabati so‘z ma’nosining so‘zlovchi his-tuyg‘usini, o‘zining shaxsiy fikrini ifodalovchi emotsiyal va ekspressiv jihatini tashkil etadi. So‘z tilda muayyan bir ma’nolarni anglatadiki, bu ma’no so‘zning gramma tik belgilari, yasalish aloqalariga asoslanadi. Mustaqil ma’no beradigan so‘zlardan tashqari, lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan, lekin o‘ziga xos ma’no, o‘z vazifasiga ega bo‘lgan, shuningdek, so‘z yasash yoki so‘z shaklini hosil qilish uchun foydalaniladigan morfemalardan farqlanuvchi birliklar ham “so‘z” deb yuritiladi. Yordamchi so‘zlar (uchun, ammo, biroq, kabi, singari), undovlar (ehhe, voy dod, obbo, ohho), taqlid so‘zlar (taq-tuq, dikir-dikir, qars-qurs, duk-duk, g‘iyq, lip-lip) va modal so‘zlar (xullas, binobarin, umuman, masalan, avvalo) shular jumlasidandir.

So‘z va leksema o‘rtasida ayrim farqlar mavjud:

1. Leksema – lisoniy birlik, ya’ni til qurilishining birligi bo‘lib, u – umumiylilik.

So‘z – til birligi va nutq birligi bo‘lib, u xususiydir, ya’ni so‘z xususiylik sifatida umumiylilikning – leksemaning nutqdagi, amaldagi ko‘rinishi, harakati, muayyan vazifa bajarishidir.

2. Leksema terminini faqat leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarga nisbatan ishlatish mumkin. Ya’ni ot, sifat, son, fe’l leksema tarzida qo‘llanadi, ammo yordamchi so‘z turkumlari – bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchilarni leksema tarzida qo‘llab bo‘lmaydi, chunki ularning leksik ma’nosini yo‘q.

So‘z terminini esa leksik ma’noga ega bo‘lgan va leksik ma’no anglatmaydigan, ya’ni faqat gramma tik ma’noga ega bo‘lgan birliklarga nisbatan qo‘llash mumkin. Ya’ni ot, sifat, fe’l, ravishlar ham so‘z, ham leksema bo‘lib keladi. Bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, modal so‘z, undov so‘zlar – so‘z, ammo leksema emas.

3. So‘z bilan leksemaning farqini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin: “Ona bilan bola – gul bilan lola”. Bu maqolda oltita so‘z, lekin to‘rtta leksema bor.

Ya’ni ona, bola, gul, lola, bilan birliklari so‘z, ammo bilan ko‘makchisi leksema bo‘la olmaydi, uning leksik ma’nosini yo‘q. “Dushman – shod, do‘s – poymol” birikuvida to‘rtta so‘z va to‘rtta leksema qatnashgan. Chunki bu so‘zlar leksik ma’noga egadir.

Leksemaning shakliy tomoni – nomema, mazmun tomoni esa semema deyiladi. Nomema – fonemalardan tashkil topadi. Semema esa semalardan tashkil topadi. Sema leksik ma’no (semema)ni tashkil qiluvchi mazmuniy qismlar va ma’no qirralaridir. Narsa shakl va mazmun yaxlitligidan iborat dialektik butunlik bo‘lganligi kabi leksema ham tashqi va ichki jihatdan tashkil topadi. Leksemaning tashqi qobig‘i nomema deb ataladi. Nomema deganda leksemaning moddiy tomonini tashkil etgan fonemalar hosilasi – nutq tovushlari nazarda tutiladi. Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni semema deyiladi. Semema ongda aks etgan narsa, belgi, miqdor, harakat kabi tushunchaning leksemada mujassamlashgan ko‘rinishi. Boshqacha aytganda, semema leksemaning ichki jihatini.<sup>10</sup>

<sup>9</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>10</sup> Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M – Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent – 2009.



Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ega. Leksemaning mazmun mundarijasi denotat yoki referent deb ataladigan borliqdagi so‘z bilan nomlanuvchi barcha narsa, belgi, harakat, miqdor, sifat kabilarni ifodalaydigan tushunchalarni bildiradi. Tushuncha (signifikat) esa borliqdagi narsa-hodisalarning kishi ongida umumlashgan tarzidir. Tushuncha mantiqiy kategoriya bo‘lib, u tafakkurga xos; leksik ma’no va uni ifodalovchi leksema esa tilga oid, til strukturasiga tegishlidir. Masalan, borliqdagi daraxt deb ataluvchi ma’lum bir shoxchaldan hosil bo‘ladigan, yashil tusda, har xillikka ega, meva beradigan ma’nolar tushuniladi. Shu asosda kishi ongida “daraxt” tushunchasi vujudga kelgan. Yoki qosh deb ataluvchi ko‘zdan tepada joylashgan, inson yuzining ma’lum bir qismi deb qaraladi. Shu asosda inson ongida “qosh” tushunchasi vujudga kelgan. Bu tushunchalar asosida semema ya’ni, leksemaning ma’nosini shakllanadi. Tushuncha va ma’no so‘zlari bitta narsa emas, ular turli xususiyatga ega. Masalan, ingliz, rus, fors, nemis tilida so‘zlashuvchi kishilarning ongida “ota” va “ona” tushunchalari mavjud. Ammo bu tushunchalar father(ingliz), papa(rus), padar (fors), baba (turk), vater (nemis) leksemalarida bitta ma’no (semema) da birlashgan. Ko‘rinadiki, turli xalqlar uchun denotat va signifikat (tushuncha) umumiy bo‘lgan holda uni ifodalash xususiyidir. Predmet – tushuncha – leksema o‘rtasida mustahkam dialektik aloqa mavjud bo‘lib, denotat va signifikat leksemaning yuzaga kelishida poydevor vazifasini o‘taydi.

Xulosa qilib aytganda, leksema o‘zida tayyorlik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan, leksik ma’no anglatadigan lisoniy birlik, so‘z termini esa ham leksik ham grammaatik ma’no anglatadigan birlik sanaladi. Shuningdek, leksema – asosiy, birlamchi til birligi, til qurilishining lug‘at boyligiga mansub; shunga ko‘ra lug‘at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi. Lug‘at boyligidagi leksemalar qatlarni o‘rganuvchi sohaga leksemika ham deyiladi. Adabiyotlarda leksikologiya termini ishlataladi. So‘z termini esa adabiyotlarda turli xil mundarija bilan ishlataladi, shu jumladan leksemaning o‘z turkumi nuqtayi nazaridan biror sintaksik vazifasida kelish darajasida grammaatik shakllangan ko‘rinishi ham so‘z deb yuritiladi. Keyingi yillarda bunday mundarija so‘zshakl (slavoforma) terminiga birkitildi, natijada grammaatik shakllangan leksik birlik so‘z deb ham, so‘zshakl deb ham ataladigan bo‘ldi. Xususan, leksemalar albatta yaxlitlangan, bir butun birlik bo‘ladi, shu xususiyati bilan grammaatik shakllardan, so‘zlar birikmasi va gapdan farq qiladi. Masalan, xona leksemasi leksik birlik sifatida o‘zgarmasdir, lekin uning grammaatik shakllari nutqda o‘zgarib turadi: xonaning, xonani, xonaga, xonada, xonadan kabi. Shuningdek, so‘z tilning muhim nominativ birligi, u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qiladigan mavhum tushunchalarni, harakat-holat, rang-tus, maza-ta’m, hajm-miqdor, xislat kabi xususiyatlarni nomlaydi: gul (predmet nomi), tafakkur (mavhum tushuncha nomi), bormoq (harakat nomi), oq (rang-tus nomi), sho‘r (maza-ta’m nomi), kichik (hajm nomi) kabi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Baxtiyor Mengliyev. Hozirgi o‘zbek tili. – Darslik, Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018. – 200 b.
5. Hojiyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1981.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - T., 2005.
7. G’ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. -T.: 1989.
8. O‘zbek tili grammaatikasi. II tom. Sintaksis. - T.: Fan, 1975. - 548 b.
9. Ne‘matov X., Bozorov O. Til va nutq. T.. “O‘qituvchi”, 1993.
10. Ne‘matov H. va b. O‘zbek tili struktural sintaksisi. -T.: Universitet, 2000.



11. Mahkamov N, Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. “Fan” nashriyoti – Toshkent – 2013
12. Hojiyev A, Nurmonov A, Zaynobiddinov S, Kokren K, Saidxonov M, Sobirov A, Quronov D. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. “Sharq” nashriyoti. – Toshkent – 2001, 109 -bet
13. [www.ziyonet](http://www.ziyonet).

